

SHARQ AXLOQIY TAFAKKURIDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING O‘RNI (“RABI’ UL-ABROR VA NUSUS UL-AXBOR” ASARI MISOLIDA)



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-68-75>

To‘rayev Laziz Abdivali o‘g‘li

TDSHU, Sharq falsafasi va germenevtika kafedrası dotsenti, PhD.

<https://orcid.org/0000-0003-3666-6229>

Sharq falsafasida axloqiy qadriyatlar — halollik, adolat, sabr-toqat, kamtarlik, ilmga intilish kabi fazilatlar inson kamolotining poydevori sifatida talqin etiladi. Bu qadriyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirib, ularni jamiyatning faol va mas‘uliyatli a‘zosi bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Bu borada buyuk alloma Mahmud Zamaxshariyning ilmiy va axloqiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘z asarlarida ilm bilan bir qatorda axloqni ham inson kamolotining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi.

Mahmud Zamaxshariyning hajm hihatdan katta asarlaridan biri bo‘lgan “Rabi’ al-abror” asari jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan muhim ijtimoiy-falsafiy manba hisoblanadi. Shu jihatdan asar yolg‘iz o‘zi yaratilgan davrning, qolaversa, bugungi ijtimoiy masalalarni o‘z ichiga olganligi bilan bebaho ahamiyatga ega. Asarda ijtimoiy, axloqiy masalalar bilan bog‘liq iqtiboslar mavzu jihatdan keng qamrovli va turli-tuman. Insonning kamoloti uchun zarur bo‘lgan fazilatlar to‘g‘risidagi iqtiboslar asarning katta qismini tashkil qiladi. Mahmud Zamaxshariy keltirgan iqtiboslarda kishining rivojlanishi, inson bo‘lib shakllanishi, kamolotiga yo‘naltirilgan ta‘limiy-tarbiyaviy bog‘liqlikni ko‘rish mumkin.

Asarning 11 bobidan 91 bobiga qadar, ya‘ni asarning eng katta 80 bobdan iborat bo‘lgan asosiy qismi jamiyatda uchraydigan barcha ijtimoiy masalalarga bag‘ishlanadi. Mahmud Zamaxshariy o‘z asarida ko‘plab shaxslarning ijtimoiy masalalarga oid iqtiboslarini keltiradi. Tadqiqotning mazkur bo‘limida asosan, Rasululloh (s.a.v.), sahoba Ibn Ma’sud, donishmand Luqmon Hakim, arablarning mashhur olimlari va notiqdari Xolid ibn Safvan, Ahnaf ibn Qays, Muhammad ibn Ajlan, Aqsam ibn Sayfiy, marvlik olim Ibn Muborak, “Adolat sohibi” unvoni egasi, qadimgi Eron hukmdori Xusrav I Anushervon va uning zukko vaziri Buzurgmexr hamda yunon faylasuflari Aflotun, Galen va Suqrotlarning iqtiboslari tahlili amalga oshirilgan. Ular tomonidan aytilgan so‘zlarda yaxshi fazilatlar-axloqiylik, shuningdek, yomon illatlar-axloqsizlik masalalari bayon etiladi.

Mahmud Zamaxshariy asarda o‘z davrining ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda, jamiyat rivoji uchun o‘rinli deb hisoblagan, kishilar ehtiyoj sezadigan va o‘sha zamon ziyolisi bilishi kerak bo‘lgan ko‘plab ma‘lumotlardan unumli foydalangan.

“Rabi’ al-abror”da bilimli bo‘lishga, ilm sohiblariga yaxshi munosabatda bo‘lishga, insonlarni adolatli bo‘lishga, omonatga vafoli bo‘lishga, sodiqlikka, mehr-muhabatli bo‘lishga, halollikka, xayr-saxovatga, oqillikka, to‘g‘ri so‘zlikka, saxiylikka, birodarlikka, go‘zal fe‘llikka kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lishlikka undaydigan minglab nasihatlariga alohida urg‘u berilgan.

Shuningdek, asarda g‘azab, jahl, yolg‘on so‘zlash, jaholat, hasad, xasislik, ikkiyuzlik, ilmsizlik kabi inson ma‘naviy kamolotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan illatlar qoralangan iqtiboslar ham ko‘plab uchraydi.

Mahmud Zamaxshariy o‘z asarida birinchi bo‘lib ijtimoiy masalalar sifatida do‘stlik, birodarlik mavzulariga o‘z e‘tiborini qaratib, mavzuga oid iqtiboslar keltiradi.

Alloma insoniyat uchun muqaddas qadriyat bo‘lgan do‘stlik fazilatiga to‘xtalib, kimlar bilan do‘st tutinish, do‘stlarni qanday sinash haqidagi iqtiboslarni asarning “Birodarlik, muhabbat, do‘stlik, aka-ukalar o‘rtasidagi munosabatlari, Alloh uchun sevishlik va yomon ko‘rishlik, qo‘shnichilik haqida”gi 12 bobida keltiradi. Zero jamiyatda kishilar kimningdir yordamiga muhtoj bo‘ladi, o‘zaro munosabat orqali hamda insonlarning bir-biriga yordam berishi natijasida ijtimoiy munosabatlar hosil bo‘ladi.

Alloma Mahmud Zamaxshariy do‘stlikka doir “hakim”¹ ya‘ni hikmat sohibi deb atalgan Luqmon Hakimdan iqtiboslar keltiradi. Ma‘lumki, Luqmoni Hakim Dovud payg‘ambar davrida ming yil yashagan, undan ko‘p hikmatlarni o‘rgangan, mingta payg‘ambarga shogird tushgan va yana shuncha payg‘ambarga ustozlik qilgan shaxsdir.

لقمان: ثلاثة لا تعرفهم إلا عند ثلاثة، الحليم عند الغضب، والشجاع عند الخوف، والأخ عند حاجتك إليه [1,43b]

Luqmoni Hakim: “Uch toifali insonlar uch holatda bilinadi, ular g‘azab chiqqanda yumshoq va muloyim bo‘la oladigan, urushda jasoratli bo‘la oladigan va muhtojlik paytda do‘st bo‘la oladigan insonlardir”, deya ta‘kidlaydi.

Demakki jamiyatda har bir inson o‘zini haqiqiy inson deb hisoblashi uchun donishmand fikricha yuqoridagi uch xususiyatga ega bo‘lmog‘i va uni amalda bajarmog‘i lozim. Bunday kishilar jamiyatda boshqalarga o‘rnak bo‘lishi va shu orqali ijtimoiy munosabatlar rivojiga ham hissa qo‘shgan bo‘ladi.

Mahmud Zamaxshariy do‘stlikka oid iqtiboslarni davom ettirib, asarning yigirma beshinchi bobida Luqmoni Hakim va Safvandan kishilar qanday fazilatlarga ega bo‘lgan insonlarni o‘zlariga do‘st tutmoqliklari va kimlarni haqiqiy do‘st deb bilishlikka oid iqtiboslar keltiradi:

لقمان: إذا أردت أن تؤاخي أخاً فأغضبه، فإن أنصفك وهو معضب فأخه، وإلا فأحذره [1,95a]

Luqmoni Hakim aytadi: “Kimsa bilan do‘stlashmoqchi bo‘lsang, uni jahlini chiqarib sina, agar jahli chiqqanda ham insof qilsa, demak u bilan aka-uka tutin, yo‘qsa, undan ehtiyot bo‘l”.

Asarning “Axloq, yaxshi va yomon odatlar, g‘azab va mehribonlik, zo‘ravonlik va muloyimlik, shafqatsizlik, yengil va og‘ir tabiatlilik haqida”gi yigirma beshinchi bobida insonlarning o‘dob-axloqlarini ulug‘lanishiga, go‘zal sifatlarga ega bo‘lishlik masalalariga alohida urg‘u berilgan. E‘tibor beradigan bo‘lsak, axloqqa doir keltirilgan ko‘plab iqtiboslar yuqorida ta‘kidlanganidek, hadislar bilan bog‘liq. Jumladan 25 bobda keltirilgan birinchi iqtibos shuning jumlasidandir.

إبراهيم بن العباس والله لو وزنت كلمة رسول الله صلى الله عليه وسلم بمحاسن الناس لرجحت، وهي قوله إنكم لن تسعوا الناس بأموالكم فسعوهم بأخلاقكم [1,92b]

¹ Hakim - o‘z so‘zi va amalida aniqlik bo‘lgan kishi.

*Ibrohim ibn Al-Abbos aytadi*²: *Allohga qasamki, agar Rasulullohning (s.a.v.) so‘zlari insonlarning yaxshiliklari bilan tarozini ikki pallasiga qo‘yilsa, albatta, Rasulullohning so‘zi og‘ir keladi. Ul zot shunday dedilar: “Sizlar odamlar orasida molu-dunyolaringiz bilan emas, odob-axloqlaringiz bilan ulug‘lanasizlar”.* Haqiqatdan ham axloq shaxs hayoti hamda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan insoniy fazilatdir. Inson axloqi orqali kamolotga erishadi, uning kamolotga erishishi o‘z navbatida jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi.

Mahmud Zamaxshariy fikrini davom ettirgan holda, inson taqdiriga oid quyidagi iqtibosni keltiradi.

وعنه عليه السلام: حسن الخلق زمام من رحمة الله في أنف صاحبه، والزام بيد الملك، والملك يجره إلى الخير، والخير يجره إلى الجنة. وسوء الخلق زمام من عذاب الله في أنف صاحبه، والزام بيد الشيطان، والشيطان يجره إلى الشر والشر يجره إلى النار [1,92b]

Rasululloh (s.a.v.): “Go‘zal xulq Allohning rahmatidan, rizoligidan bo‘lgan yugandir (jilov), u o‘z sohibining burnidan o‘tkazilgandir. Bu yugan Allohning qo‘lida, Alloh uni yaxshilikka, ezgulikka yetaklaydi, yaxshilik va ezgulik esa, uni jannat sari yetaklaydi. Yomon xulq esa, Allohning azobidan, g‘azabidan yasalgan yugandir va u o‘z sohibining burnidan o‘tkazilgan. Bu yugan Shaytonning qo‘lidadir. Shayton uni yomonlikka undaydi, yomonlik esa o‘z sohibini do‘zax sari yetaklaydi”.

Asarda axloqqa doir yana bir hadisdan iqtibos keltiriladi:

الحسن بن علي عليه السلام يرفعه: أن الرجل ليدرك بحسن خلقه درجة الصائم القائم، وإنه ليكتب جباراً وما يملك إلا أهله [1,92b]

Hasan ibn Ali (r.a) rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: “Albatta kishi yaxshi xulqi bilan kunduzi ro‘za tutib, kechasi namoz o‘qib chiqqan kishining darajasiga erishadi”. Mazkur hadis insonlarni yaxshi xulqli bo‘lishlikka chaqirib, odob-axloqi go‘zal inson farz amallarni bajarish maqomiga erishishni ko‘rsatmoqda. Barcha farz amallarni bajarib, ammo xatti-harakati, xulqida kamchiligi bo‘lgan kishi mukammal inson bo‘la olmasligini mazkur hadis dalolat qilib turibdi.

Asarning yigirma beshinchi bobida Mahmud Zamaxshariy Luqmoni Hakimdan quyidagi iqtiboslarni keltiradi:

علي عليه لسلام ثلاث من كن فيه فقد استكمل الإيمان، من إذا رضي لم يخرجه رضاه إلى الباطل، وإذا غضب لم يخرج غضبه من الحق، وإذا قدر لم يتناول ما ليس له فيه و تروي هذه الكلمات للقمان [1,94a]

Ali (a.s.): “Kimda kim uch xislatni o‘zida jamlasa uning iymoni kamolga yetgan bo‘ladi: rozi bo‘lsa, roziligi tufayli yolg‘on gapirmaydi, g‘azabi chiqsa g‘azabi tufayli haqdan chiqmaydi, agar qudratga ega bo‘lsa, o‘zganing moliga ko‘z olaytirmaydi, bu so‘zlar Luqmoni Hakimga tegishlidir”.

Asarning “Umidsizlik va qanoat, Alloh berganiga qanoat qilish, Allohga tavakkal qilib, unga ishonish va tamagirlik qilmaslik haqida”gi 91 bobda qanoat, shukur fazilatlarini haqida Luqmoni Hakimdan yana bir iqtibos keltiradi.

لقمان الحكيم: كفى بالقناعة عزاً، ويطيب النفس نعيماً [1,275b]

² Ibrohim ibn Al-Abbos (176-243/792-857) mashhur shoir, asli kelib chiqishi turkiy bo‘lgan, Suliy nomi bilan ijod qilgan mutafakkir.

Luqmoni Hakim: “Azizlikka qanoat, baxt-saodat va xotirjamlikka mamnunlik kifoya qiladi”. Kishi aziz va mukarramlikka erishmoqchi bo‘lsa Luqmoni Hakimning fikricha har bir narsaga qanoat qilishi, shuningdek, baxtli-saodatli va tinchlik-xotirjamlikda yashamoqchi bo‘lsa u o‘z hayotidan mamnun va rozi bo‘lmog‘i lozim.

Asarning “Odamzot, uning sifatlari, go‘zallik va xunuklik, uzunlik va qisqalik, kattalik va kichiklik, semizlik va ozg‘inlik haqida”gi yigirma to‘rtinchi bobida quyidagi iqtibosni keltiradi.

قال للقمان الحكيم سيده: أدبح لي شاة وأنتني بأطيب مضغتين فيها؛ فأتاه بالقلب واللسان؛ فسكت عنه ما سكت؛ ثم أمره بدبح شاة وقال: ألق أخبث مضغتين؛ فرمى بالقلب واللسان، وقال: إنه ليس شيء أطيب منهما إذا طابا [1,91a]

Luqmoni hakimga hojasi deydi: “Qo‘y so‘yib, eng yoqimli joyini keltir”. Hakim qo‘yni so‘yib, uning yuragi va tili keltiradi. So‘ngra bir muddat o‘tib, hoja yana bir qo‘y so‘yib, uning eng yoqimsiz joyini keltirishini buyuradi. Hakim yana qo‘yning yuragi va tilini keltiradi. Hoja hayron bo‘lib, undan nega bunday qilganini so‘raganida, Luqmoni Hakim: “Hayotda eng shirin narsa toza yurak va shirin so‘z - til bo‘lsa, eng yoqimsiz narsa bemehr, tosh yurak va ig‘vogar tildir, deb javob bergan ekan”.

Mahmud Zamaxshariy yunon faylasuflarining ezgu fazilatlar va yaxshi xislatlar haqidagi qarashlaridan ham iqtiboslar keltiradi. Asarning “Baxt, iqbol, tole, muvaffaqiyatsizlik, umidsizlik va yo‘qotish haqida”gi o‘n to‘rtinchi bobida Aflotundan iqtibos keltiradi:

قيل لأفلاطون لم لا تجتمع الحكمة والمال قل: لعزة الكمال [1,53b]

Aflotundan so‘rashibdi: “Nega donolik va boylik birlashmaydi”? U dedi: “Mukammallik hurmati uchun”. Bundan ko‘rinadiki donolik va boylik bir-biriga zid omillar. Har ikkisini ortidan quvgan inson o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Bu ikki omilning birlashishi birining mukammalligiga putur yetkazadi.

Alloma Mahmud Zamaxshariy ilm masalasida ham qator faylasuflardan iqtiboslar keltiradi:

قال رجل لأفلاطون: كيف قويت على جمع هذا العلم كله؟ قال: أفنيت من الزيت في السراج أكثر من الشراب الذي شربته في عمري كله [1,295a]

Bir kishi Aflotundan so‘rabdi: “Qanday qilib shuncha bilim egallagansiz”? Aflotun: “Men umr bo‘yi ichgan ichimligimdan ko‘ra sham chirog‘im uchun moyini ko‘proq sarf qilganman”. Bu bilan alloma tugal bilimga inson uzluksiz o‘qish va davomiy ilm olish bilan yetishi mumkinligini ta’kidlagan.

Bundan tashqari asarda farzandning ilm olishiga otaning beqiyos o‘rni haqida alohida iqtibos keltirilgan:

جالينوس سن أهل أثينة أن من لم يعلم ولده علمالم يجب له على ولده حق الأبوة [1,295a]

Galen (Jolinus) Afina xalqiga o‘z o‘g‘liga ilm o‘rgatmagan otaga o‘g‘li uchun otalik haqi yo‘q deb aytdi.

Mahmud Zamaxshariy Xusrav I Anushervonning vaziri Buzurgmexrdan³ ham iqtiboslar keltiradi. Asarning “Taajjub, qiziq voqealar va ajoyibotlar haqida”gi ellik beshinchi bobida Buzurgmexr aytadi:

قيل لبرزجمهر من أعلم الناس بالدنيا؟ قال: أقلهم منها تعجباً [1,199a]

Buzurgmexrdan so‘rashibdi, “Dunyodagi eng bilimdon inson kim”? U dedi: “Dunyodan kim boshqalardan ko‘ra kamroq ta‘jub qilsa o‘sha inson oqil insondir”.

Asarning “Aql, farosat, olijanoblik, fikr-mulohaza, tajriba va oxirgi natijasiga qarash haqida”gi 57 bobida Buzurgmexrdan yana iqtibos keltiriladi:

برزجمهر لا شرف إلا شرف العقل، ولا غنى إلا غنى النفس [1,202b]

Aql sharafidan boshqa sharaf va ruh boyligidan boshqa boylik yo‘q. Mazkur keltirilgan iqtibos ham mu‘taziliylik aqidasi tamoyillariga mos keladi, bunday iqtiboslarni alloma Mahmud Zamaxshariy ataylab, o‘z e‘tiqodidan kelib chiqib, ulardan unumli foydalangan.

قيل لبرز جمهر من أكمل الناس؟ قال: من لم يجعل سمعه غرضاً للفحشاء، وكان الأغلب عليه

التغافل [1,203b]

“Buzurgmexrdan so‘radilar: Eng mukammal inson kim?” U dedi: “Yomon ishlarga bajarishga his-tuyg‘ularini jilovlay oladigan va o‘zining juda aqlli ekanligidan bexabar insonlar mukammal insonlardir”.

جاء الأحنف إلى باب بعض الأمراء فجلس ينتظر الأذن، فمرت به سقاة فقالت: يا شيخ أحفظ علي قربتي

حتى أعود: فخرج الأذن بالأذن، فقال: أن معي وديعة؛ ولم يزل قاعدا حتى جاءت السقاة [1, 94a]

Bir kuni Ahnaf⁴ amirlardan birining uyiga borib, uni oldiga kirishga izn so‘raydi. Xizmatkor amirdan ruxsat so‘rab kelgunga qadar Ahnaf eshik oldida kutib turadi. Shu vaqtda ko‘chadan suv sotuvchi o‘tib ketayotib, suv idishini Ahnaf oldiga qo‘yib dedi: “Ey shayx, men kelgunimga qadar shu idishga qarab turing”. Birozdan so‘ng xizmatkor chiqib, Ahnafga amir oldiga kirishini va uni kutayotganini aytadi, shunda Shunda Ahnaf: “Birov menga omonat qoldirdi, omonatga xiyonat qilish gunoh”, - dedi va suv sotuvchisi kelguniga qadar idishni qo‘riqlab turdi. Haqiqatdan ham omonatga xiyonat qilish naqadar og‘ir amal. Omonatga vafo qilish ham go‘zal xulqlardan biridir. Ayniqsa bugungi kunda bu masalaga ko‘p ham e‘tibor berilmayapti. Omonatga rioya qilishlik ham insonlar o‘rtasida hamjihatlikni, oqibatni, ishonchni oshiradi.

Mahmud Zamaxshariy asarda insondagi yomon illatlar bo‘lgan jahl va g‘azab haqida ham bir nechta iqtiboslar keltiradi, jumladan:

الأحنف قوة الحلم على الغضب أفضل من قوة الانتقام. وقال كنا نعد المروءة الصبر على كظم الغيظ، ومن

لم يصبر على كلمة سمع كلمات [1,95a]

Ahnaf aytadilar: “Jahlni bosishga sarflangan kuch intiqom olish uchun sarflangan kuchdan afzalroqdir. Jahlni bosishga qilingan sabr erkaklik sanaladi. Kimda kim bir so‘zga sabr etmasa bir necha so‘zlar eshitadi”.

قيل لابن المبارك أجمل لنا حسن الخلق في كلمة، قال ترك الغضب [1,95b]

³Xusrav I Anushervonning ilm-fanga e‘tibori kuchli bo‘lgan don vaziri, davlat arbobi

⁴ Ahnaf ibn Qays Muhammad (s.a.v) davrida yashagan, Marv, Hirot va Nishopur shaharlarini fath etgan sarkarda. Ilmi va oqilligi bilan mashhur bo‘lgan.

*Ibn Muborakdan*⁵ “Biz uchun dunyodagi eng go‘zal narsa bir so‘z bilan aytganda nima”, deb so‘rashganida, u “G‘azabni tark etish”, degan ekan. Mahmud Zamaxshariy mazkur iqtibosni “Qissas al-arab” (“Arab qissalari”)dan olgan.

Ilm egallash, ta‘lim olish Mahmud Zamaxshariy asarida markaziy nuqtada turadi. Har bir inson o‘z o‘rniga, hurmatga va obro‘-e‘tiborga ega bo‘lmoqchi bo‘lsa albatta ilmi bo‘lishi lozim.

Mahmud Zamaxshariy asarning “Ilm-hikmat, odob, kitob, qalam va shular bilan bog‘liq narsalar haqida”gi oltmishinchi bobida Buzurgmexrdan yana iqtibos keltiradi:

قيل لبرزجمهر ما بال تعظيمك لمعلمك أشد من تعظيمك لأبيك قال لأن أبي كان سبب حياتي الفانية ومعلمي سبب حياتي الباقية [1,301b]

Buzurgmexrdan: “Nima uchun ustozingni otangdan afzalroq hurmat qilasiz? – deb so‘radilar. Chunki otam meni o‘tkinchi dunyoga, hayotga olib kelgan bo‘lsa, ustozim menga boqiy, oxirat hayotini ato etdi.

Qur‘oni karimga qilingan tafsirlarda, xususan “Luqmon” surasi tafsirida bu iqtibos aynan Buzurgmexr tomonidan keltirilgan.

محمد بن عجلان ماشيء أشد على الشيطان من عالم معه حلم، إن تكلم تكلم بعلم، وإن سكت سكت بعلم، يقول الشيطان سكوتة علي أشد من كلامه [2,123a]

Muhammad ibn Ajlan dedilar: “Shayton uchun halim olimdan kuchliroq dushman yo‘qdir, gapirsa ilm bilan gapiradi, sukut qilsa halimlik bilan sukut qiladi va Shayton deydiki, Olimning sukuti gapidan kuchliroqdir”.

Mahmud Zamaxshariy ta‘lim berish ulug‘ ish ekanligi haqida ham iqtiboslar keltiradi:

ابن مسعود من تعلم بابًا من العلم ليتعلمه الناس ابتغاء وجه الله أعطاه الله أجر سبعين نبيًا [1,298a]

*Ibn Ma’sud*⁶: “Kim o‘zgaga Alloh uchun ta‘lim bersa Alloh unga yetmish payg‘ambar mukofotini beradi”. Mazkur iqtibos payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)dan keltirilgan hadisdir.

كانت اليونانية يورثون البنات العين والبنين الدين، وكانوا يقولون: الابن من المال إلا ما يكون عوناً له على طلب العلم، وأطيعوه على تعظيم الحكمة ليصير جمع العلم أغلب عليه من جمع المال، وليرى أنه أفضل عتاد، وأكرم مستفاد [1,301b]

Yunonlar qiz va o‘g‘illariga dinni meros qilib qoldirishdi va ular aytadilar: bilim olish unga boylik keltiradi, ilm izlash pul to‘plashdan afzaldir, ibratli o‘git va hikmatli so‘zlar va ularga amal qilish va ilm egallash ularga turli ne‘matlarni va imkoniyatlarni beradi.

قيل لسقراط: ما الفرق بين من له أدب ومن لا أدب له؟ قال: كالفرق بين الحيوان الناطق وبين الحيوان الذي ليس بناطق [1,301b]

Suqrot dan so‘rashdi, “Odob-axloqli kishidan odob-axloqsiz kishini qandayfarqi bor”? *Suqrot aytdi*: “Gapiradigan hayvon bilan gapirmaydigan hayvonni o‘rtasidagi farq”. Mahmud Zamaxshariy yunon faylasuflarining ushbu iqtiboslarini keltirib, o‘zining ham ilmiy-falsafiy qarashlarini shular orqali ifoda etgan.

⁵ Ibn Muborakning to‘liq ismi Abdulloh ibn al-Muborak al-Marvaziy (118-181/736-797) ilohiyot, hadis, tarix va fiqh ilmlari bilan shug‘ullangan. Uning otasi turk, onasi xorazmlik bo‘lgan.

⁶ Payg‘ambarning yaqin sahobalaridan biri, fiqh olimi

“Rabi’ al-abror” asarida mehr-muruvvat, xayr-saxovat kabi fazilatlar ulug‘langan iqtiboslar ham ko‘plab uchraydi. Mahmud Zamaxshariy saxiylik borasida islomgacha bo‘lgan davrda yashagan, arab shoiri, donishmandi va notiq Aqsum ibn Sayfiyning o‘gitlaridan ham iqtiboslar keltiradi:

أَكْتَمُ بِن صَيْفِي: فِي الْاِعْتَبَارِ غَنَى عَنِ الْاِخْتِبَارِ [1,204a]

Aqsum ibn Sayfiy: Saxiylikdan kechmang, u obro‘-e‘tibor, hurmatning boshlanishidir. Bu ibratli o‘git orqali Mahmud Zamaxshariy insonlarni yuksaklarga ko‘taruvchi, ulug‘ maqomlarga erishishda asosiy omil bo‘lgan saxiylikka chaqiradi. Mazkur iqtibos As-Saolibiyning “Ash-Shakvo va al-itob va ma vaq‘ai lil xullon va al-as‘hob” [4,209] kitobida 601-tartib raqamda keltirilgan.

Mahmud Zamaxshariy Xusrav I Anushervondan ham iqtiboslar keltiradi.

أنوشروان أربع قبائح، وهي في أربعة أفبح البخل في الملوك، والكذب في القضاة، والحدة في العلماء، والوقاحة في النساء [1,272a]

Anushervon dedi: “To‘rt yomon narsa bor, ular shohlarning baxilligi, qozilarning yolg‘on so‘zlamog‘i, olimlarning takaburligi, ayollarning hayosizligi”.

قيل لأنوشروان ما الجود الذي يسع الناس كلهم؛ قال: إرادة الخير لجميعهم، وبسط الوجه لهم [1,349b]

Anushervondan so‘rashibdi, “Barchaga birdek saxiylik qilish deganda nima tushunasiz? Bu barchaga yaxshi tilaklarni bildirish va ularga tabassum qilish, degan ekan”.

Boshqa bir bir iqtibosda ehson haqida so‘z boradi:

وعنه رضي الله عنه لا تستح من إعطاء القليل فإن الحرمان أقل منه [1,349b]

U kishi yana aytdiki: “Kam berishdan uyalmang, shuni berishdan ham mahrum emassizku”. Bu ibrat orqali insonlarni birinchidan, ehson ulashishda kam berishdan xijolat bo‘lmaslikka chaqirilsa, ikkinchidan shukr, qanoat qilishga chaqiradi.

قيل للأحنف ما الإنسانية قال التواضع عند الرفعة، والعفو عند القدرة والعطاء بغير منة [1,349b]

Ahnafdan so‘rabdilar: “Insoniylik nima? Aytdi: u davlat va boylik borida kamtarin bo‘lmoq, kuch-qudratga ega payti kechirimli bo‘lmoq va minnatsiz ehson qilmoqdir”. Insonni ziynatlovchi xislat aynan minnatsiz ehson qilish va saxovat ko‘rsatishdir.

“Rabi’ al-abror” asarida berilgan axloq va ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq mavzular faqat o‘z zamonasi uchun muhim bo‘lib qolmasdan bugungi kunda ham juda dolzarb bo‘lgan, jamiyat uchun zarur masalalarni o‘zida mujassam etgan. Asardan yuqoridagi kabi iqtiboslarni tarjima qilish, ularni talqin etib, keng kitobxonlarga yetkazish jamiyatimizda mehru oqibat, saxovat, bilim, ta‘lim olish singari masalalarni yechishga ko‘mak beradi.

“Rabi’ al-abror” asarida berilgan barcha nasihatlar, o‘gitlar va ma‘lumotlar hozirgi yoshlarning ma‘rifatiga ham xizmat qiladi. Chunki, asar insonning ijtimoiy hayotda yanada madaniyatli va yetuk shaxs bo‘lishi uchun bilishi kerak bo‘lgan barcha bilimlarni o‘zida mujassam etgan. Muhimi asarda to‘plangan iqtiboslar orqali Mahmud Zamaxshariy o‘z zamonasi va o‘zigacha bo‘lgan allomalarning ma‘lumotlarini avlodlarga yetkazishda tarixiy ko‘prik vazifasini bajarib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Rabi’ al-abror” qo‘lyozmasi. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondi. Qo‘lyozma № 2384.
2. “Rabi’ al-abror” qo‘lyozma. Leypsig-Germaniya. №601.
3. GALENA, G., & AZ-ZAMAXSHARI, V. P. M. MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “RABI’ AL-ABROR” ASARIDA YUNON FAYLASUFI JOLINUS QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI Oqilov Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li.
4. أبو منصور الثعالبي. الشكوى والعتاب وما وقع للخلان والأصحاب. 1-ج.